

**BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA SINTAKSISNI O'RGANISHNING  
AHAMIYATI VA USULLARI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari*

**Soatmurodova Rayhona**

**Yo'ldosheva Maftuna**

**Sharapova Munisa**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limning ona tili darslarida gap ustida ishlashning vazifalari hamda asosiy bosqichlari haqida fikr yuritilib, o'quvchilarda gapni to'g'ri tuza olish, ulardan nutq jarayonida to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirish masalasi haqida fikrlar bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, gap, gap ustida ishlash, bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar, to'gri nutq.

**Abstract:** This article discusses the tasks and main stages of working on sentences in native language lessons in primary education, and expresses ideas on the issue of forming students' skills in correctly constructing sentences and using them correctly in the speech process.

**Keywords:** Primary education, native language lessons, sentence, working on sentences, primary parts, secondary parts, correct speech.

**Аннотация:** В статье рассмотрены задачи и основные этапы работы над предложением на уроках родного языка начального образования, а также формирование у учащихся умений правильно строить предложения и правильно их употреблять в речевом процессе.. .

**Ключевые слова:** Начальное образование, уроки родного языка, предложение, работа предложений, главные и второстепенные предложения, правильная речь.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'лом bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urfodatlarni o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'limi sohalari

kiritilgan. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgalar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinflar ona tili kursini o'rganishning yetakchi insoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) o'zaro bog'liq holda o'rganish hisoblanadi. Mazkur tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o'rganinshni ta'minlaydi va til kishilarning aloqa vositasi ekanini o'quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu tamoyil bo'limlar orasidagi mumkin bo'lgan bog'lanishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda sintaksis yuzasidan beriladigan bilimlar amaliy o'rganiladigan va nazariy o'rganiladigan bilimlarga bo'linadi. Sintaksisga oid bilimlarni amaliy o'rganish savod o'rgatish davridayoq boshlanadi va 4-sinfda ham davom ettiriladi. Boshlang'ich sinfda "Gap", "Darak gap", "So'roq gap", "Buyruq gap", "His-hayajon gap", "Gap bo'laklari", "Bosh bo'laklar", "Ikkinchi darajali bo'laklar", "Gapda so'zlarning bog'lanishi" mavzulari nazariy o'rganiladi. Bu mavzular yuzasidan turli mashqlar bajariladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalinish ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi.

Morfologiya va leksika, fonetika va orfografiya sintaksis asosida o'zlashtirilgani uchun tilni o'rganishda gap ustida ishlash markaziy o'rinni egallaydi. Gap nutqning asosiy birligi bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, olmosh, fe'l va ularning muhim kategoriylarining tilimizdagi rolini gap asosida bilib oladilar. O'quvchilar ona tili leksikasini ham gap negizida egallaydilar. So'zning lug'aviy ma'nosi va uning qo'llanish xususiyatlari so'z birikmasi yoki gapda ma'lum bo'ladi. So'z gapda bir ma'noli bo'ladi (gapdan tashqari bir necha ma'no ifodalash mumkin).

Boshlang'ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh yo'nalishga bo'lish mumkin:

1. Gap haqidagi grammatik tushunchani shakllantirish (til birligi bo'lgan gapning muhim belgilarini o'rgatish).
2. Gap qurilishini o'rgatish (so'z birikmasida so'zlarning bog'lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig'iq gaplar ustida ishlash).

3. O‘quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko‘ra turlaridan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Gapda so‘zlarni aniq qo‘llash ko‘nikmasini o‘stirish.

5. Yozma nutqda gapni to‘g‘ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, finish belgilarni qo‘yish) ko‘nikmasini shakllantirish.

Ishning bu besh yo‘nalishi bir-biriga o‘zaro ta’sir etadi va gapning ayrim tomonlarini o‘rganish maqsadidagina ularning har biri mustaqil muhokama qilinadi. Gapni o‘rganish va nutqda undan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish o‘quvchilarning aniq bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. O‘quvchi qanday yangilikni bilsa, unda bu yangilik haqida xabar berish ehtiyoji tug‘iladi. U o‘z fikrini ifodalash uchun qulayroq shakl qidiradi. Demak, aloqa qilish talabidan gapni mukammalroq egallash zaruriyati kelib chiqadi. “Gap” mavzusi barcha sinflarda o‘rganiladi. Gapning belgilari haqidagi bilimlar chuqurlashtirib boriladi. O‘quvchilar fikr ifodalovchi nutq birligi – gap haqidagi elementar tasavvurdan gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari, gapda so‘zlarning bog‘lanishini o‘rganishga o‘tadilar.

Gap ustida ishlashning boshlang‘ich bosqichi savod o‘rgatish davriga to‘g‘ri keladi. Bu davrda o‘quvchilar gapning muhim xususiyatlari (fikr ifodalashi, tugallangan ohang bilan aytilishi) bilan tanishadilar. Gapning bu xususiyatlarini bilmasdan turib, so‘zlardan gap tuzib bo‘lmaydi. Agar o‘quvchilar gapning bosh bo‘laklarini ajrata olmasalar, gap nutqning yaxlit birligi ekanini bilmaydilar. Ega va kesim gapning qurilishi va mazmunining asosini tashkil etadi. Shuning uchun ham savod o‘rgatish davrida gapning bosh bo‘laklari ustida kuzatish o‘tkazgan ma’qul. Gapning bosh bo‘laklarini kuzatish bilan o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar, ularda nutqdan gapni ajratish ko‘nikmasi shakllanadi.

Gapni o‘rganish me’yoriga qarab uning tarkibiy qismlari, xususan, so‘z birikmasi haqidagi tasavvur aniqlanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sintaktik material kam bo‘lsa ham, butun o‘quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda gap ustida ishlab boriladi. Milliy o‘quv dasturiga ko‘ra, 1-sinfda “Ona tili va o‘qish savodxonligi”da o‘quvchilarga gap haqida elementar tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikr bildirishi, gap so‘zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma’lum finish belgilari qo‘yilishi haqida amaliy ma’lumotlar beriladi.

2-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” da esa o‘quvchilar gap haqida amaliy tushunchalar oladilar. Ular gapdan shu gap kim yoki nima haqida

aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga muqaddima bo'ladi.

3-sinf gap ustida ishlashda yangi bosqichdir. O'quvchilar gapni amaliy o'rganishdan tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. Ular gapning muhim belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim atamalari kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi (ega va kesim) ni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlaydilar va gapdagi ikki so'z (hokim va tobe so'z)ni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar. Shuningdek, gapning maqsadga ko'ra turlari, darakgap, so'roq gap, buyruq gap hamda his-hayajon gaplarning o'ziga xos jihatlari bilan tanishadilar.

4-sinfda “Nutq. Matn” mavzusini o'rganish bilan gap haqidagi bilim kengaytiriladi. Xususan, o'quvchilar matn nutqning yozma shakli ekanligi, uni qismrlarga bo'lish, unga sarlavha qo'yish, reja tuzish mumkiinligi haqidagi tushunchlarga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda yetakchi hisoblanadi. Birinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilari gap bo'laklarini ikkita katta guruhga (bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga) bo'linishini o'zlashtiradilar. Bu sinflarda ikkinchi darajali bo'laklar turlarga ajratilmaydi. Gapni o'zlashtirish uchun bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning mohiyati ochiladi: bosh bo'laklar gapning grammatik asosini tashkil qiladi, fikr, asosan, gapning grammatik asosi orqali ifodalanadi; ikkinchi darajali bo'laklar esa bosh bo'laklarni aniqlovchilik va to'ldiruvchilik vazifasini bajaradi.

Ko'rindaniki, boshlang'ich sinflarda sintaksini o'rgatishdan asosiy maqsad bolalarning yosh xususiyatini hisobga olgan holda og'zaki va yozma nutqini, tafakkurini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilarda gapni to'g'ri tuza olish, ulardan nutq jarayonida to'g'ri foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Boshlang'ich ta'lif jarayoni bolalarning mantiqiy tafakkurini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon jismonan sog'lom bo'lishni, go'zallik va nafosatni his eta olishni, milliy urfatatlarni o'zida singdirish va ularga rioya qilishni o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lif dasturlariga ona tili, matematika, tabiat

va inson va jamiyat ta'limi kabi fanlar kiritilgan bo'lib, ona tili ta'limi bolalarning tafakkur faoliyatlarini kengaytirishga, fikrlarini erkin ifodalashga va jamiyat a'zolari bilan muloqotda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'rganishining asosiy tamoyili tilning barcha tomonlarini o'zaro bog'liq holda o'rganishdir. Bu tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida tushunishga va o'quvchilarga tilning aloqa vositasi ekanligini anglashlariga yordam beradi. Sintaksisni o'rganish jarayonida gap, darak gap, so'roq gap, buyruq gap va boshqalar kabi turli mavzular nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi.

Gap ustida ishlash jarayonida o'quvchilarga quyidagi besh yo'nalishda bilim beriladi: gap haqidagi grammatik tushunchalarni shakllantirish, gap qurilishini o'rganish, nutqda maqsadga ko'ra gap turlaridan foydalanish, so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish va yozma nutqda gapni to'g'ri tuzish ko'nikmasini shakllantirish. Bu yo'nalishlar bir-biriga ta'sir etadi va o'quvchilarning gapni to'g'ri tuza olish va ulardan nutq jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda gap bo'laklari haqida tushuncha berish, ularni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish, shuningdek, gapning grammatik asosini tashkil etuvchi egasi va kesimini o'rganish muhimdir. O'quvchilar gapning asosiy xususiyatlarini bilmasdan turib, so'zlardan to'g'ri gap tuza olmaydilar. Shuning uchun savod o'rgatish davrida gapning bosh bo'laklarini ajratish va ularga e'tibor berish zarur. Umuman olganda, boshlang'ich sinflarda sintaksisni o'rgatishning asosiy maqsadi bolalarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tafakkurini o'stirish va fikrlarini aniq ifodalash ko'nikmalarini shakllantirishdir. O'quvchilar gapni to'g'ri tuza olish va nutqda to'g'ri foydalanish ko'nikmalarini egallash orqali o'z bilimlarini doimiy ravishda kengaytiradilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Umumiyl o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi (Boshlangich ta'lim).- Toshkent, 2017.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.
3. Fuzailov S., Xudayberanova M., Yo'ldosheva Sh. Ona tili. 3-sinf uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodi yui, 2019.
4. Ikromova R., G'ulomova X. va b. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodi yui, 2020.